XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 2 - fevral VI-74-6-7-94-K/23 Jomboy tumani hokimligi

“Shodlik” mahalla fuqarolar yig‘inidagi nomsiz ko‘chalarga nom berish va Qamchinota ziyoratgohini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadasrt agentligining 2022-yil 22-noyabrdagi 01075-sonli Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash masalalari bo‘yicha ekspert komissiyasining xulosasi, O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 4, 6, va 10-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining VI-chaqiriq navbatdagi LXXIV-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadasrt agentligining 2022-yil 22-noyabrdagi 01075-sonli Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash masalalari bo‘yicha ekspert komissiyasining xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shodlik mahallasidagi ko‘chalar va Qamchinota ziyoratgohi ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining maslahatchisi (A.Qurbonov) ilovada keltirilgan geografik obyektlarni Davlat resstriga kiritish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (O.Odilov), “Jomboy tongi” gazetasi (I.Po‘latov) mazkur qarorni o‘rnatilgan tartibda e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman

Kengashining sanoat, transport, qurilish, aloqa, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Mamatqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Q.Sobirov**

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2023 yil 2 fevraldagi
VI-74-6-7-94-K/23-son qaroriga
1-ilova

Shodlik mahallasidagi ko‘chalar va Qamchinota ziyoratgohi

RO‘YXATI

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspert komissiyasi xulosasi
1.	Ko‘cha	Shodlik	Shodlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Ko‘cha	Shodlik	Xashdala	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Berk ko‘cha	Shodlik	Tong yulduzi-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Ziyoratgoh	Sarichashma	Qamchinota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq